

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**“ELEKTRONIKA VA AVTOMATIKA” FAKULTETI**

**“ELEKTRONIKA VA MIKROELEKTRONIKA” KAFEDRASI**

Qo'lyozma xuquqida

**Normatov Sodik Mansurovich**

MAVZU: “Bosimni urganish qurilmasini yaratish”

5521700 – Elektronika va mikroelektronika  
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasining olish uchun

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

Kafedra mudiri:

prof. Iliyev X.M.

Rahbar:

dos. K.S.Ayupov

**Toshkent 2014**

<b>Mundarija</b>	
Kirish	4
<b>I BOB. BIRLAMCHI O'ZGARTIRGICHLARNING TENZOSEZUVCHANLIGI</b>	4
<b>1.1 MEXANIK KATTALIKLAR O'ZGARTIRGICHINING TENZOSEZGIRLIGI</b>	7
<b>1.2 YaRIMO'TKAZGICHLARDAGI TENZOQARSHILIK EFFEKTI</b>	9
<b>1.3. YaRIMO'TKAZGICH STRUKTURASIDA TENZOEFFEKT</b>	16
<b>2 BOB O'LCHOV QURILMALARI</b>	20
<b>2.1. Richagli-mexanik asboblari</b>	20
<b>2.2. Dinamometrlar</b>	22
<b>2.3 Plyonkali metall tenzometr</b>	25
<b>2.4 Yarimo'tkazgichli tenzodatchiklar</b>	29
<b>III BOB Asosiy qism</b>	34
<b>3.1 Bosimning rezistiv sensorlari uchun qayishqoq jismlar</b>	34
<b>3.2 Bosimni urganish krulmasi</b>	38
<b>XULOSA</b>	42
<b>I V Bob. Hayot faoliyati xavfsizligi</b>	44
<b>V Bob. IQTISODIY QISM I. Loyxani texnik-iqtisodiy asoslash.</b>	57
<b>II. Investisiya xajmini aniqlash.</b>	
<b>Adabiyotlar ro'yxati</b>	63

# KIRISH

## KIRISH

O'lchashlar - inson tomonidan tabiatni idrok etishning eng muhim vositalaridan biri. Hozirgi zamonda jamiyat hayotini o'lchashlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Fan va sanoatni ham o'lchashlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir soniya mobaynida dunyo bo'yicha ko'p milliardlab o'lchashlar amalga oshiriladi. Ular asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning kerakli sifat va texnik darajada bo'lishi, transportning xavfsiz va halokatlarsiz ishlashi taominlanadi, shuningdek, tibbiy tashxislar qo'yiladi, ekologik vaziyat holati baholanadi va boshqa muhim masalalar hal etiladi. Inson faoliyatining birorta sohasi yo'qki, u yerda o'lchash, sinash va nazorat natijalaridan samarali foydalanilmasin. Shuning uchun o'lchashlarni bajarish uchun ko'p millionlab kishilar va katta moliyaviy mablag'lar safarbar etilmoqda. Hozirgi paytda ijtimoiy mahnatning qariyb 15 foizi o'lchashlar uchun sarflanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi milliy mahsulotning 3 foizidan 6 foizigacha o'lchashlar va ular bilan bog'liq maqsadlarga sarflanmoqda.

O'lchanayotgan kattaliklar diapazoni va ularning miqdori doimo o'sib bormoqda. Hozirgi davrda, masalan, uzunlik  $10^{-10}$  m dan  $10^{17}$  m gacha, harorat 0,5 k dan  $10^6$  k gacha, elektr qarshiligi  $10^{-6}$  Om dan  $10^{17}$  Om gacha, quvvat  $10^{-15}$  Vt dan  $10^9$  Vtgacha o'lchanmoqda. O'lchanayotgan kattaliklar diapazoni o'sib borishi bilan o'lchashlar murakkabligi ham ortib bormoqda. O'lchash shunchaki birlamchi texnik harakat bo'lib qolmay, o'lchash eksperimentini tayyorlash va o'tkazish, olingan ma'lumotlarni ishlash, tahlil etish, aks ettirish bilan bog'liq murakkab jarayonga aylanib bormoqda.

O'lchashlarning bu qadar muhimligini belgilovchi sabablardan biri ularning ahamiyatidir. Har qanday boshqarish, tahlil qilish, istiqbolni belgilash, rejalashtirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish masalalarining asosini ishonchli boshlang'ich ma'lumotlar tashkil etadi, ma'lumotlar esa zarur fizik kattaliklar, parametrlar va ko'rsatkichlarni o'lchash yo'li bilan hosil qilinadi. Tabiiyki,

boshqarish va nazorat qilish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning qay darajada to'g'riligi o'lchash natijalarining yuqori aniqligiga va ishonchligiga bog'liqdir.

Mustaqil respublikamizning istiqbolida mamlakatni dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlari darajasida texnik va texnologik rivojlantirish vazifasi turibdi. Bu vazifani hal etish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq. Bu o'z navbatida mamlakatimiz o'quv yurtlarida jahon standartlari darajasida, raqobatbardosh milliy kadrlar tayyorlashga ijodiy yondashuvni talab etadi. Bundan kelib chiqib, taolim standartlarini takomillashtirib, mutaxassislar tayyorlash o'quv rejalariga zamonaviy talablar asosida yangi fanlarni kiritilmoqda, ilgaridan o'qitib kelanayotgan fanlar tarkibi va mazmuni boyitilmoqda.

**I-BOB**

# I BOB

## BIRLAMCHI O'ZGARTIRGICHLARNING TENZOSEZUVCHANLIGI

O'lchash texnikasining imkoniyatlari har doim birlamchi o'zgartirgichlar va sezgir elementlar bilan chegaralangan. Shuning uchun shiddat bilan rivojlanayotgan o'lchash texnikasida elementlarning sezgirliги muammo bo'lgan va bo'lib qolmoqda. Ularning yechimi yangi materialni tadqiq etishdan iboratdir. Shu sababga ko'ri kuchli legirlangan kremniyni istiqbolli materiallar qatoriga kiritishimiz mumkin.

Kuchli legirlangan kremniyda aniqlangan anomal yuqori fotosezgirlik, fotoo'tkazuvchanlikniг chuqur infraqizil va haroratli so'nishi, anomal yuqori qoldiq o'tkazuvchanlik, s-shakldagi volt-amper tavsif, har turdagi avtotebranishlar va boshqa yangi fizikaviy effektlar mexanik kattaliklar o'zgartirgichining yangi avlodini yaratishda asos bo'lishi mumkin. Ularning tenzosezgirliklari kompensasiya qilinmagan kremniy asosida tayyorlangan sanoat tenzodatchiklarning tenzosezgirliklaridan bir necha tartibga yuqori bo'lishi mumkin.

### 1.3 Mexanik kattaliklar o'zgartirgichining tenzosezgirliги

Mexanik kattaliklarning o'zgartirgichlari yoki tenzodatchiklar o'tkazgichlardan (simli, folgali) va yarimo'tkazgichlardan tayyorlanadi. Ularning ishlash tamoyili, deformatsiya ta'sirida materialning elektr qarshiligining o'zgarishiga asoslanadi.

Bo'ylama mexanik kuchlanish ta'sirida materialning elektr qarshiligi materialning geometrik o'lchamlari va solishtirma qarshiligi hisobiga o'zgaradi hamda quyidagi nisbatga bo'ysunadi:

$$\frac{\Delta R}{R_0} = \frac{\Delta l}{l_0} - \frac{\Delta f}{f_0} + \frac{\Delta \rho}{\rho_0} \quad (1.1)$$

$$\frac{\Delta l}{l} = E, \quad \frac{\Delta f}{f_0} - 2\nu \frac{\Delta l}{l_0} \quad (\nu - \text{Puasson koefitsiyenti}) \quad \text{va} \quad \frac{\Delta \rho}{\rho_0 E} = m_1 \quad \text{ni etiborga}$$

oladigan bo'lsak, (1.1) ifodani quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

$$\frac{\Delta R}{R_0} = E(1 + 2\nu + m_1) \quad (1.2)$$

U holda tenzosezgirlik koefitsiyenti S quyidanicha ifodalanishi mumkin:

$$S = \frac{\Delta R}{R_0 E} = 1 + 2\nu + m_1 \quad (1.3)$$

Metallar uchun Puasson koefitsiyenti (0,25 – 0,4) bo'lganligi uchun solishtirma elektr qarshiligining  $\frac{\Delta \rho}{\rho_0 E} = m_1$  o'zgarishini umumiy tenzodatchik qarshiligining o'zgarishiga qo'shgan hissasi 20% ni tashkil qiladi, u holda o'tkazuvchi tenzodatchiklar uchun S koefitsiyenti taxminan 2 ga teng ( $S=1+2\cdot 0,4=1,8$ ).

Yarimo'tkazgichli tenzodatchiklarda umumiy qarshilikning o'zgarishining  $\frac{\Delta R}{R_0}$  98% solishtirma qarshilikning o'zgarishi tufayli bo'lib, faqat 2% tenzodatchik materialning geometrik o'lchamining o'zgarishi hisobidan bo'ladi. Shuning uchun oddiy amaliy maqsadlarda quyidagini qabul qilish mumkin:

$$S \approx \frac{\Delta \rho}{\rho_0 E} \quad (1.4)$$

Natijada yarimo'tkazgichli tenzodatchikning S sezgirliги 50÷170 ga erishadi.

Bo'ylama deformasiyada qarshilik taxminan o'zgaradi. Yarimo'tkazgichli tenzodatchiklarning qarshiligi katta o'zgarmasligiga qaramasdan (30% gacha), yarimo'tkazgichli tenzodatchikli zanjirdagi signallarni kichkina ko'chishlarni, bosimlarni, tezlanishlarni va boshqalarni o'lchashda kuchaytirish talab qiladi.

## 1.4 Yarimo'tkazgichlardagi tenzoqarshilik effekti

Smitning germaniy va kremniyda tenzoeffekt tadqiqoti tenzoeffektning kristallografik yo'nalishga bog'liqligini oddiy zonalar to'g'risidagi tasavvurlar bilan tasvirlab bo'lmasligi qo'rsatdi. Elektron energiyasini  $\hbar k$  to'lqin vektoriga (hik impulsida) bog'liqligi murakkab ko'rinishda bo'lishi aniqlandi.. O'tkazuvchanlik zonasida bir necha minimum energiya mavjud bo'ladi. Minimumga mos keluvchi k-fazoda izoenegiyalik sirt simmetriya o'qi bo'ylab cho'zilgan aylanish ellipsoididir. Kremniyda bu yo'nalish  $\langle 100 \rangle$ , ya'ni 6 ta ekvivalent ellipsoid bor, germaniyda  $\langle 111 \rangle$  yo'nalish – 4 ellipsoid bor. Bu izoenergetik sirt quyidagi tenglama bo'yicha ifodalanadi:

$$Y_{e_k} = \frac{\hbar^2}{2} \left( \frac{k_x^2}{m_{\parallel}^*} + \frac{k_z^2}{m_{\perp}^*} \right) \quad (1.5)$$

Bu yerda har hil effektiv massa kiritilgan. Ellipsoid o'qiga bog'liq holda elektronning effektiv massasini ( $m_{\parallel}^*$ ) bo'ylama va ( $m_{\perp}^*$ ) ko'ndalang deb atashadi.

n-turli kremniy misolida yarimo'tkazgichli kristalda elektr o'tkazuvchanligiga deformatsiyaning ta'sirini ko'rib chiqamiz.

$\langle 100 \rangle$  o'qi bo'ylab harakatlanayotgan elektronlarda  $m^*$  katta bo'lsa, ularga perpendikulyar bo'lgan yo'nalishda xarakatlanayotgan elektronlarda  $m^*$  kichik bo'ladi. Harakatchanlikning nisbati teskari bo'ladi:

$$\left( \mu_{\perp} = \frac{e\bar{\tau}}{m_{\perp}^*} \right) > \left( \mu_{\parallel} = \frac{e\bar{\tau}}{m_{\parallel}^*} \right) \quad (1.6)$$

Deformatsiyalanmagan kristalda vodiylar (ellipsoidlar) simmetrik bo'ladi va ularda elektronlarning konsentrasiyasi bir xil bo'ladi.  $\langle 100 \rangle$  o'q yo'nalishda tok oqib o'tayotganda oltita vodiylarning umumiy o'tkazuvchanligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_0 = en_0 \left( \frac{1}{3} \mu_{\parallel} + \frac{2}{3} \mu_{\perp} \right) = en_0 \mu_{cp} \quad (1.7)$$

(1.7) nisbat tokning ixtiyoriy yo'nalishi uchun o'rinlidir, ya'ni deformasiyalanmagan kristalni elektro'tkazuvchanligi izotropdir.

Agar kristall  $\langle 100 \rangle$  bo'ylab bir o'qli qisilsa va undagi tok shu yo'nalishda oqayotgan bo'lsa,  $\langle 100 \rangle$  yo'nalishda joylashish minimum pastga siljiydi.  $\langle 010 \rangle$  va  $\langle 001 \rangle$  yo'nalishlarda joylashish minimum yuqoriga qarab ko'tariladi. Bunda elektronlar ko'tarilayotgan minimumdan pastga tushayotgan minimumga oqib tushadi. Agarda mazkur siljish issiqlik energiyasi  $kT$  bilan taqqoslaganda yetarli darajada katta bo'lsa, kristalning o'tkazuvchanligida o'tkazuvchanlik zonasining barcha minimumlari qatnashmaydi. Faqatgina mazkur holatda pastki bo'lib qolgan qatnashadi, ya'ni mazkur holatda  $\langle 100 \rangle$ . Elektr maydon tomon xarakatlangan kichik xarakatchanlikka ega bo'lgan elektronlar miqdori oshadi. Bunga mos holad elektr o'tkazuvchanlik kamayadi. U holda:

$$\begin{aligned} \sigma_{\text{deph.}} &= e \left[ \frac{n_0 + 2\Delta n}{3} \mu_{\parallel} + \frac{2}{3} (n_0 - \Delta n) \mu_{\perp} \right] = e \left[ \frac{n_0}{3} \mu_{\parallel} + \frac{2n_0}{3} \mu_{\perp} + \frac{2\Delta n}{3} \mu_{\parallel} - \frac{2\Delta n}{3} \mu_{\perp} \right] \\ &= \sigma_0 + \frac{2}{3} e \Delta n (\mu_{\parallel} - \mu_{\perp}) \end{aligned}$$

Shunday qilib,

$$\frac{\sigma_{\text{deph.}} - \sigma_0}{\sigma_0} = \frac{\Delta \sigma}{\sigma_0} = \frac{2\Delta n (\mu_{\parallel} - \mu_{\perp})}{n_0 (\mu_{\parallel} + 2\mu_{\perp})} \quad (1.9)$$

deformasiya ta'sirida elektr o'tkazuvchanlikning o'zgarish effekti ellipsoiddan ellipsoidga o'tgan elektronlar soni va effektiv massaning anizotropiyasi bilan aniqlanadi.

Agarda bir o'qli qisish  $\langle 111 \rangle$  yo'nalishda amalga oshirilayotgan bo'lsa, mazkur holatda  $\langle 100 \rangle$ ,  $\langle 010 \rangle$  va  $\langle 001 \rangle$  o'qlar bo'ylab deformasiyasi bir hil bo'ladi va minimum o'sha yo'nalishda hamda bir xil kattalikka siljiydi. Shu vaqtda elektronlar oqimi bo'lmaydi. Demak elektr o'tkazuvchanlikning o'zgarishi bo'lmaydi.

Agar anizotropik effektiv massa bo'lmasa, ya'ni  $m_{\parallel}^* = m_{\perp}^*$  (sferik izoenergiyalik sirt vaqtida), elektronlarning «oqish» effekti elektro'tkazuvchanlikning o'zgarishiga olib kelmaydi. N-turdagi kremniyda

effektiv massalar anizotropiyasi  $\frac{m_{||}^*}{m_{\perp}^*} = 5$  ga teng bo'lsa, n-turli germaniy uchun mazkur nisbat  $\frac{m_{||}^*}{m_{\perp}^*} = 20$  ga teng bo'ladi.

Deformasiya ta'sirida valent zonani o'zgarishi murakkab xarakterga ega. Ko'pgina yarimo'tkazgichlar uchun deformasiyalanmagan holatda valent zonaning cho'qqisi  $k=0$  nuqtada aynigan bo'ladi. Deformasiya zonani to'liq siljishiga va uning bo'linishiga olib keladi. Bunda izotropik deformasiya (masalan har tomonlama siqish) zonani to'liq siljishiga olib kelsa, anizotropik deformasiya zonani bo'linishini beradi.  $kT$  dan katta kattaliklarga zona bo'linganda kristalning o'tkazuvchanligida valent zonaning yuqori sathi qatnashadi. Deformasiya bo'lmaganda kovaklarning xarakatchanligi:

$$\mu_{p0} = \frac{e\tau}{m_v^{3/2}} (m_n^{1/2} + m_T^{1/2}) \quad (1.10)$$

bu yerda  $m_o$  va  $m_{ye}$  deformasiyalanmagan yarimo'tkazgichlarda og'ir va yengil kovaklarning effektiv massasi

$$\mu_p = \frac{P_1\mu_1 + P_2\mu_2}{P_1 + P_2} \quad (1.11)$$

Deformasiya ta'sirida kovaklarning xarakatchanligi quyidagiga teng:

bu yerda  $p_1$  va  $p_2$  bo'lingan yuqori va pastki zonadagi kovaklarning konsentratsiyasi,  $\mu_1$  va  $\mu_2$  mos xarakatchanliklar.

Yuqorida keltirilganlardan, yarimo'tkazgichlardagi tenzoeffekt kristallografik yo'nalishga va o'tkazuvchanlik turiga bog'liqligi kelib chiqadi. Kattaroq tenzoeffekt n- va p-germaniyda va  $\langle 111 \rangle$  yo'nalishda mavjud bo'lsa, n-turli kremniyda  $\langle 100 \rangle$  yo'nalishda va p-kremniyda esa  $\langle 111 \rangle$  yo'nalishda kuzatilgan.

Tenzodatchiklarda yarimo'tkazgichli struktura ko'pincha qo'llaniladi. Bunga sabab, mexanik kuchlanishlarga p-n o'tish tavsiflari, birjinsli yarimo'tkazgich

parametrlariga qaraganda sezgir bo'ladi. (bu konsentrasiyasi deformatsiyaga sezgir bo'lgan noasosiy tok tashuvchilar bilan aniqlanishi bilan bog'langandir.).

Deformatsiyalanmagan  $p^+$ - $n$ - o'tishning to'yinish tok zichligini ko'yidagicha yozish mumkin:

Sayoz kirishma sathlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlarda noasosiy tashuvchilarning yashash vaqtini deformatsiyada o'zgarish deb hisoblash bo'ladi. Demak, deformatsiyaga faqat  $\mu_p$  i  $R_n$  bog'liq bo'ladi. Noasosiy zaryad tashuvchilarning konsentrasiyasini deformatsiya vaqtida o'zgarishini quyidagi ifoda bilan aniqlash mumkin:

Bunga mos ravishda deformatsiyalangan  $r^+$ - $p$ - o'tishdagi to'yinish tokining zichligi:

Deformatsiyada to'yinish tokining nisbatan o'zgarishi:

$r^+$ - $p$ - o'tish uchun:

Ma'lumki, yarimo'tkazgichlardagi tenzoeffektlarda kirishma sathlar muhim o'ringa ega bo'ladi. Odatda kirishma sathlarni sayoz va chuqurga ajratishadi. Yarimo'tkazgichlarning deformatsiyasida elektron va kovaklarning spektrini o'zgarishi asosan xususiy va kirishmali sathlarning siljishi bilan bog'langandir.

Kirishmali sathlar geliy temperaturagacha odatda bo'shagan bo'ladi, sayoz satxlarning siljishi tenzoeffektga xissa qo'shmaydi. Bir jinsli yarimo'tkazgichlarda tenzoeffekt xarakatchanliklarni anizotropiyasi tufayli bo'lsa, yarimo'tkazgich strukturada noasosiy tok tashuvchilarning konsentrasiyasining o'zgarishi tufayli yu beradi.

Chukur satxlarga ega yarimo'tkazgichlar bosim ostida o'zini boshqacha tutadi. Mazkur satxlar odatiy haroratlarda to'laligicha bo'shagan bo'lmaydi. Deformatsiya vaktida chukur sathlarning joylashishining o'zgarishi yarimo'tkazgichlarning elektrofizikaviy xossasiga kuchli ta'sir kiladi.

$n$ -Ge da oltin atomlarining chukur satxlari holatiga bir o'qli qisishning ta'siri [41, 42] ishda o'rganilgan. Mazkur ishda Xoll effekti yordamida bir o'qli mexanik kuchlanishning  $X=(0\div 15)\cdot 10^3$  kGs/sm<sup>2</sup> keng oralig'ida tok tashuvchilar -

elektronlar konsentrasiyasining haroratga ( $T=77\div 300$  K) bog'liqligini tadqiq qilingan.

$n_t = f(x)$  bog'liklik  $\{X \parallel \vec{j} \parallel <100.\}$ ,  $\{X \parallel \vec{j} \parallel <110>\}$  va  $\{X \parallel \vec{j} \parallel <111>\}$  qisish shartlarida olingan bo'lib, bu yerda  $j$  – tok zichligining vektori beradi. O'tkazilgan tadqiqot natijasi asosida deformatsiyada energetik tirqishning o'zgarish kattaligi quyidagi formulada bilan aniqlanadi:

Oltinning taqiqlangan zona o'rtasiga nisbatan chukur energetik sath va zona orasida energetik tirqishi  $Ye_c=0,2$  eV hisoblashlarga ko'ra barikalik koeffisiyent va oltin sathining siljish yo'nalishi aniqlandi. Keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, n-Ge da oltinning chuqur sathi  $Ye_s - 0,2eV$  ni barcha kristollografik yo'nalishlar siljishi o'tkazuvchanlik zona vodiylardan eng pastkilarini siljish yo'nalishida amalga oshiriladi. Sathlarni siljishning barik koeffisiyentlari orasidagi farqlarni nafaqat kattaliklar, balki ishoralari bo'yicha farq Ge da Au kirishmalariga tegishli bo'lgan chuqur satxlarning anizotropiya haqida guvoxlik.

Yashash vaqtlarni bir o'qli yuklama kattaligi bog'liqligini tadqiq etish rekombinasiya jarayonlari va rekombinasion markazlarning parametrlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olishga imkon beradi va ayrim xollarda tajriba natijalarini tushuntirishga yordam beradi.

Bir qator parametrlarning funksiyasi bo'lgan, xususan Fermi sathi, noasosiy zaryad tashuvchilarning yashash vaqti  $\tau$  umumiy xolda tashqi bir o'qli yuklama  $X$  kattaligiga va uning yo'nalishiga murakkab ko'rinishda bog'liq bo'ladi.

Rekombinasiya holati  $p = 1$  va yopishish holatida  $p = -1$ , rekombinasiya sathlarning to'liq ionlashmagan sohasida  $\tau(x)$  ning o'zgarish xarakteri birinchi navbatda bosim kattaliklariga sathlarning  $Ye_{r,t}(x)$  ionlashish energiyasini va zonadagi saramli holatlar zichligini  $N_{c,v}(x)$  o'zgarishi tufayli satxlarni to'lish darajasini bog'liqligi bilan aniqlanadi. Turli kristallografik yo'nalishlari bo'lab siqishda kristall xossalarining noekivalentligi tufayli yuz beradigan  $N_{c,v}(x)$  bog'liqliklarning xar xil ko'rinishi ushlab qolinayotgan tashuvchilarning turini va taqiqlangan zonada sathni joylashishini aniqlashga imkon bersa,  $N_{c,v}(x)$  hisobga

olish,  $\Delta E_{r,t}^l$  energetik sathni va zona sathiga yaqin bo'lgan  $\Delta E_{c,v}^l(x)$  larni siljishi bilan aniqlanadigan  $\Delta Y_{e,r,t}(x)$  bosimli satxning ionlashish energiyasini o'zgarini aniqlashga imkon beradi.

Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan va  $^{60}\text{So}$  ning  $\gamma$  - kvantlari bilan nurlantirilgan  $p$ - va  $p\text{-Si}$  ( $n_0, p_0 = 1 \cdot 10^{14} - 5 \cdot 10^{15} \text{cm}^{-3}$ ) kristallda bir o'qli yuklamaga yashash vaqtini bog'liqligi [37] ishda o'rganilgan. Olingan  $\tau(x)$  bog'liqliklar ham haroratning turli sohalarida  $\tau$  o'zgarishi bo'yicha, xam siqish yo'nalishi bo'yicha farq qiladi.

Haroratning  $T=150 \div 200 \text{K}$  oralig'ida  $r\text{-Si}$  uchun  $\tau_n$  bosim oshishi bilan kamayadi. Ayniqsa  $X \parallel \langle 100 \rangle$  da kuchliroq bo'ladi. Bu holat asosan  $Y_{e_s} - 0,18 \text{ eV}$  sathning ionlashish energiyasini kamayishi bilan bog'langandir. Haroratning  $T=120 \div 150 \text{ K}$  oralig'ida  $\tau_n(x)$  o'zgarishi haroratning  $T=150 \div 200 \text{ K}$  oralig'ida  $\tau_n(x)$  o'zgarishiga qarama qarshidir. Ularni yuklanish oshishi bilan pastki  $Y_{e_s} - 0,18 \text{ eV}$  sath va valent zona orasidagi energetik tirqishni kamayishi bilan tushuntirilishi mumkin. Bunda o'tkazuvchanlik zonasi yonidagi yopishish markazlarining  $N_t$  konsentrasiyasini oshishiga olib keladi.

$T=80 \text{K}$  da olingan  $Y_{e_s} - 0,1 \text{ eV}$  sathli nuqsonlar uchun  $\tau_n(x)$  bog'liqlikni o'zgarishi xam sathni o'tkazuvchanlik zonasi bilan murakkab xarakterdagi bog'lanishga ega ekanligini ko'rsatadi. Buni bosim oshishi bilan ularni bo'linishi bilan tushuntirish mumkin.  $T=300 \text{K}$  da  $n\text{-Si}$  uchun  $\tau_p(x)$  bog'liqlik bosim oshishi bilan kuchsiz kamayadi,  $X \parallel \langle 100 \rangle$  yo'nalishda  $X \parallel \langle 111 \rangle$  qaraganda kuchsizroq kamayadi.  $T=150-200 \text{K}$  xarorat soxasida  $\tau_p(x)$  kattalik bosim oshishi bilan o'sadi,  $X \parallel \langle 100 \rangle$  yo'nalishda  $X \parallel \langle 111 \rangle$  qaraganda tezroq o'sadi. Bunday bo'lishni yopishuvchi kovaklarning yashash vaqtini  $\tau_{r,p}$  ( $\tau_{r,p}$  - yopishuvchi kovaklarning yashash vaqti) bosim oshganda A-markaz sathlarini elektronlar bilan to'lishini kamayishi tufayli rekombinasiya vaqtiga nisbatan oshishi bilan tushuntiriladi.

Oddiy va neytroni legirlangan kremniyda pezoqarshilik  $\{x \parallel \vec{j} \parallel \langle 100 \rangle\}$  shartida harorat 78–300K oralig'ida mexanik qisishning  $x=(0-12)10^3 \text{kg/sm}^2$  oralig'ida [44] ishda tadqiq etildi. Neytronli legirlangan va oddiy (kuchli kompensasiya qilingan) kristallar uchun  $\rho_x / \rho_0 = f(x)$  sifatli o'xshashliklar ko'rsatilgan. Biroq ( $x > 5 \cdot 10^3 \text{ kg/sm}^2$  sohalarda)  $\rho_x / \rho_0 = f(x)$  bog'liqlik Smitta-Xering pezoqarshiligidan farq qiladi. Shunga bog'liq holda neytronli legirlangan va kuchli kompensasiya qilingan kremniy kristallida fosforning sayoz donor sathi bilan taqqoslaganda chuqurroq sathlar mavjud degan fikrni bildirish mumkin.

### 1.3. YaRIMO'TKAZGICH STRUKTURASIDA TENZOEFFEKT

Shu vaqtgacha, yarimo'tkazgichli asbob parametrlariga deformatsiyani ta'siri bo'yicha olingan tajriba natijalarining tahlili, sayoz kirishmalarga ega bo'lgan p-n-o'tish tavsiflarini bosim ostida o'zgarishiga olib keluvchi asosiy omillar yarimo'tkazgich taqiqlangan soha kengligini, shuningdek zaryad tashuvchilar xaraktchanligining effektiv massa o'zgarishidir degan xulosani chiqarish mumkin. Noasosiy zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini deformatsiyaga bog'liq emas deb hisoblasa bo'ladi. Bunga sabab sayoz kirishma sathlar suyuq geliy haroratigacha to'liq ionlashgan bo'ladi va ularning zaryad holati deformatsiyada o'zgarmaydi.

Bosim ostida energetik sathlar va yarimo'tkazgichning taqiqlangan zona kengligini o'zgarishi tokning noasosiy tashuvchilarning  $p_n$  va  $n_p$  konsentrasiyasini o'zgarishiga olib keladi. Demak bosim ostida to'yinish tokini o'zgarishi olib keladi. Yetarli darajada yuqori haroratlarda asosiy tashuvchilarning konsentrasiyasi ionlashgan kirishma atomlarning miqdori bilan aniqlanadi vash u sababli bosimga kuchsiz chezgirdir.

Deformatsiyalanmagan  $r^+$ -n-o'tishdagi to'yinish tokining zichligini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

(1.19)

Deformatsiyada noasosiy zaryad tashuvchilarning konsentrasiyasini o'zgarishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

(1.20)

bu yerda  $\Delta E_g$  – taqiqlangan zona kengligini haqiqiy o'zgarishi. Mos ravishda deformatsiyalangan p<sup>+</sup>-n –o'tishda to'yinish tokining qiymati quyidagicha bo'ladi: p<sup>+</sup>-n –o'tishning deformatsiyasida to'yinish tokining nisbatan o'zgarishi quyidagicha bo'ladi:

Katta tenzosezgirlikka tenzodiodlar ega bo'lib, ularda p-n-o'tish sohasining deformatsiyasi o'tkar igna yordamida amalga oshiriladi. P-n o'tishning yotish chuqurligi katta bo'lmasligi kerak ( $\approx 1$  mkm ). Bunda bevosita igna ostida bo'lgan p-n- o'tishning kichkina qisami deformatsiyalanadi. Bu bir o'qli deformatsiyaga

qaraganda  $E_{gef}$  ni kuchli o'zgarishiga olib keladi. Bunday deformatsiyada germaniy hamda kremniyda  $E_{gef}$  kamayadi. Tokning kuchli o'zgarishiga qaramasdan, deformatsiyaning bu usuli, ignani bitta nuqtaga aniq tushushini ta'minlovchi mexanik qurilma konstruksiyasining murakkabligi tufayli hozirgi kunda keng tarqalmagan.

p-n-o'tish parametrlarini bosimga sezgirligi, yarimo'tkazgich bazasini chuqur sath beruvchi kirishmalar bilan legirlanganda oshadi. Mazkur sezgirlikni oshish mexanizmi hozirgi kunda oxirigacha aniqlanmagan. Aftidan, mazkur holatda chuqur sathda tok tashuvchilarning rekombinasiyasi va generasiyasi yoki ular orqali tunnellanish toka sezilarli ta'sir qilsa, bosim ta'sirida chuqur sathlarning siljishi sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Chuqur sath hosil qiluvchi Au, Zn, Ni i Pt kirishmalar bilan kompensasiya qilingan kremniydan tayyorlangan qotishmali diodlarning tavsiflariga ta'siri [55] ishda o'rganilgan. Bosim  $\langle 111 \rangle$  yo'nalishda hosil qilingan. Platina kirishmasiga ega bo'lgan kremniydan tayyorlangan oddiy diod VATi teskari tarmog'i, to'g'ri tarmog'iga qaraganda tenzosezgirlikka ega bo'lishi aniqlangan. Ruh kirishmasiga ega bo'lgan kremniydan tayyorlangan S-shakldagi sohaga ega bo'lgan diodlarda yaxshi tenzosezgirlik to'g'ri siljishda namoyon bo'ladi. Nikel kirishmasiga ega bo'lgan S-shakldagi sohali diodlardagi VATning to'g'ri tarmog'i  $8 \cdot 10^7$  Pa gacha bo'lgan bosim ta'sirida deyarli o'zgarmaydi. Shunday qilib, S-diodning to'g'ri tarmog'iga bosimning ta'siri kiritilayotgan Au, Pt, Zn va Ni kirishmalarga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi.

Oltin kirishmasi bo'lgan diod fototoki va VATiga  $\langle 111 \rangle$  yo'nalishdagi bir o'qti bosimning ta'siri 77 va 300 K haroratlarda tadqiq etilgan. 300 K haroratda fototokning kattaligi bosim oshishi bilan kuchsiz o'sib borsa, 77 K da fototok keskin kamayadi va bosimga kuchsiz bog'liq bo'ladi. Har xil kuchlanishlarda teskari tokni bosimga bog'liqligi, kuchlanish qanchalik katta bo'lsa, shunchalik minimumga ega bo'ladi.

Bazasi oltin, ruh, nikel bilan kompensasiya qilingan kremniy asosida tayyorlangan kremniyli  $r^+ - n - n^+$  i  $r^+ - n - r^+$  strukturalarning fotoki,

fotoelektryurituvchi kuchi va VATiga bir o'qti qisishning ta'siri xona va azot haroratlarida o'rganilgan. Ruh bilan kompensasiya qilingan kremniydan tayyorlangan diodlarga 77 K da fototokni kuchli o'sishi va qayshqoq deformatsiya sohasida bosimga kuchsiz bog'liq bo'lishi xarakterli ekanligi aniqlangan.

**II-BOB**


## 2 BOB

### O'LCHOV QURILMALARI

#### 2.1. Richagli-mexanik asboblari


**Richagli-mexanik asboblari** turkumiga indikatorlar, richagli changaklar, indikatorli nutromer va changaklar, o'lchash kallaklari va boshqalar kiradi. Bu asboblarda, mexanizmning uzatishlar sonini orttirib beradigan richagli mexanik moslamalar ishlatilganligi tufayli, yuqori aniqlikda o'lchashlarni bajarish mumkin. Mazkur asboblari asosan nisbiy o'lchashga mo'ljallangan, lekin ularning ayrimlari yordamida mutloq o'lchamlarni ham o'lchash mumkin.

**Indikatorlar** ikki turda: soatsimon, richagli-tishli bo'ladi. Soatsimon indikatorlar, silindrik korpus va unga kiritilgan tishli reykali sterjendan tarkib topadi. Sterjen qabul qilgan chiziqli ko'chish reyka tishlari g'ildiraklar vositasida aylanma strelkaga uzatiladi. Tishli g'ildiraklar tizimi shunday tanlanganki, bunda o'lchash sterjeni 1 mm ga chiziqli ko'chganda strelka bir marta to'liq aylanadi. Indikatorlarning doiraviy shkalasi 100 bo'lakdan iborat bo'lib, 1 bo'lak qiymati 0,01 mm ga teng. Aniqligi 0 va 1 sinfga mansub bo'ladi. O'lchash chegarasi esa 10 mm gacha. Shuningdek, bo'lak qiymati - 0,001 va 0,002, o'lchash chegarasi mos ravishda 1 mm va 2 mm bo'lgan indikatorlar ham amalda ishlatiladi (7.1-rasm).



**1-rasm. Soatsimon indikatorlar**

**Richagli-tishli indikatorlar** 1 mm gacha bo'lgan ko'chishlarni o'lchaydi, shkala birligi 0,01 ga teng. Uning asosini tishli sektorga ega richag va unga tutashtirilgan strelkali tribka tashkil etadi (7.2-rasm).



.2-rasm. Richagly – tishli indikatorlar (o'lchov kallaklari)

Indikatorlar ishlatish eng qulay bo'lgan o'lchash vositalaridir.

## 2.2. Dinamometrlar


Dinamometrlar qurilish konstruksiyalarini sinashda ishlatiladigan eng muhim vositalardan sanaladi. Ular yordamida konstruksiyalarni sinash paytida zo'riqishlar o'lchanadi, domkratlar va sinov mashinalarning sanoq qurilmalari sozlanadi.

Dinamometrlar ishlash tamoyiliga ko'ra 3 turga bo'linadi:

- prujinali dinamometrlar (DP);
- gidravlik dinometrlar (DG);
- elektr dinometrlar (DE);

7.3 – rasmda prujinali dinometrlarning tuzilishi va tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

Ishchi dinometrlarni sozlash 2 razryad aniqligidagi kuch o'lchash mashinalarida, to'rtinchi sinfdagi donador yuklar vositasida, namunaviy dinamometrlar bilan yuklanish sharoitida taqqoslash orqali yoki sinov mashinasida amalga oshirilishi mumkin.




.3-rasm. Prujinali dinamometr:

a – umumiy ko'rinishi; b - knematik sxemasi;

1 – yarim elliptik prujinalar; 2 – korpusga mahkamlangan tortqi; 3 – qo'zg'aluvchi tortqi; 4 – tishli sektor; 5 – tishli g'ildirak; 6 – ko'rsatkich.

Laboratoriya sharoitida dinamometrlarni sozlash uchun N.G.Tokar rusumidagi namunaviy dinamometrlar ishlatiladi (7.4 – rasm).




7.4 – rasm. N.G.Tokar rusumidagi namunaviy dinamometrning tuzilishi:

1 – egiluvchan rama; 2 – plastinalar; 3 – xomut; 4 – soatsimon indikator; 5 – uchlik; 6 – po'lat igna; 7 – korpusning yuqori va quyi tayanchlari; 8 – vint.

## 2.3 Plyonkali metall tenzometr

Ma'lumki mexanik deformatsiya ta'sirida utkazgishning qarshiligi uzgaradi. Bu shuni bildiradiki utkazgishning uzi sensorning kushi yoki bosim sifid foydalansa buladi. Amaliyotta utkazgishni qulay bulish uchun diametrin juda kichik qilib olinadi va u elektrlik izolyasiyalangan buladi. Bu bilan elastik jismning deformatsiyasi tenzodatchikke uzgarishsiz beriladi va uning uzi bilan uzgarishi kerak. U yopqa strukturali yoki izolyasiyalangan qalin qatlamli taglikdan turadi va xuddi metall qarshilikdek. Haroratdagi qarshilik uzgarishi uchun qabul qilinadi. 1-rasmda kursatilgan moslamaning qalinligi b-rasmda nisbatan a-rasmda kichikroq.



Rasm 2-1. Metall tenzodatchikning tuzilishi (MTT).

(2 ta izolyasiyalangan taglik orqali kush va bosim uzgarishini urnatqan. Kush va bosim ta'sirida elastik jismda deformatsiya hosil buladi, MTT ga berilgan va unda qarshilik uzgarishi hoil buladi. Agar suzilish qarshilik yulig parallel bulsa uzgarishi uncha kitta bulmaydi. Qarshilik oshishi uchun kupchilik metall yuli bir biridan tug'ri burchakli formada bulishi kerak. )

Metalli tenzodatchiklarda "k" ning kamayishi geometriyalik ulcham bilan ifodalanadi  $k=2$ . Metall tenzodatchikda "ε" elastik diapazonda shegaralangan bulishi kerak, yani uning ulchami 0,1% oshmosligi kerak. Solishtirma qarshilikning uzgarishi  $10^{-3}$  dan kam. Shu sababli kup vaqtlari tenzodatchiklarning geometriyalik uzunligining oshishi tug'ri burchakli formada

buladi. Shunday qilib shu orqali 350[om ] qarshilik standartiga erishamiz. Shu va boshqa sabablarga bog'lik holda metalli tenzodatchiklar 2-rasmdegidek kuprikli sxemada ishlatiladi. Temperaturaga bog'lik kundalang sezgirlikka ega sensorning qarshiligiyeng sosiy muammolarning biri. Metallu tenzodatchiklarda kushsiz signalning uzgarishsiz muxim ma'noli sababga ega bulasiz.

Bu yerda tenzodatchikning harorat koeffisenti  $\alpha_T^R$  (yana  $TK_R$  yoki  $TC_R$  bilan ifodalanadi)  $\alpha_T^E$  bu harorat koeffisenti, Ye taglikning elastik moduli ( $TK_E$  yoki TSE) va buning harorat koeffisenti  $\alpha_T^K$  buladi ( $TK_K$  yoki  $TS_K$ ). Boshqa haroratga bog'lik effektlar tenzodatchik va tagliklarning harorat har xil kengayish beradi. Shunday qilib tenzodatchik va tagliklarda harorat koeffisientining uzilishi  $\alpha_T^{1,S}$  va  $\alpha_T^{1,DMS}$  umumiy halotta haroratga chiziqli bog'likta buladi.

Kundalang sezgirlikka ega optimal tenzodatchiklarda shunga nisbatan haroratlar kuyidagicha kiritilgan.


$$\begin{aligned} \frac{\Delta R}{R} &= k \varepsilon = k \left\{ \varepsilon(\sigma) + \Delta \varepsilon_{bimetall} \right\} \\ &= \underset{\substack{\text{Band 1. Abschn.} \\ 3.1 \text{ und } 5.3}}{\bullet} k \left\{ \frac{\sigma}{E(T)} + \left[ \frac{\partial \varepsilon}{\partial T} \Big|_s - \frac{\partial \varepsilon}{\partial T} \Big|_{DMS} \right] \Delta T \right\} \\ &= k \left\{ \frac{\sigma}{E(T)} + \left[ \alpha_T^{1,S} - \alpha_T^{1,DMS} \right] \Delta T \right\} \\ &= \frac{k_o (1 + \alpha_T^k \Delta T)}{E_o (1 + \alpha_T^E \Delta T)} \sigma + k_o (1 + \alpha_T^k \Delta T) \left[ \alpha_T^{1,S} - \alpha_T^{1,DMS} \right] \Delta T \\ &\quad \alpha_T^{1,S} \approx \alpha_T^{1,DMS}; \quad \alpha_T^k \approx \alpha_T^E \end{aligned}$$

Optimal elastik xossalarning kriteriyalari materialning tayanchi bilan ifodalanadi. Shu bilan harorat koeffisenti aniqlanadi.

Pulat, mis –berilliy uchun  $\alpha_T^E = -3 \cdot 10^{-4} \frac{1}{K}$

Alyuminiy qotishmalar uchun  $\alpha_T^E = -6 \cdot 10^{-4} \frac{1}{K}$

2.2 –rasmda har xil k koefitsentlarga ega materialdan tayorlangan tenzodatchilarning elastik modulining haroratga bog'likligi solishtirib kurilgan.



Rasm 2.2 Serpimli jismdagi tenzodatchiklarning harorat xarakteristikasi.


(pulat ,Cu mis –berilliy , CuBe,alyuminiy qotishmasi[4.2])

a) har xil k koefitsentlga ega materiallardan tayorlangan tenzodatchiklarning elastik modulining haroratga bog'likligini pulat va alyuminiy qotishmalar uchun solishtirgan ,keyinchalik NiCr dan tenzodatchik tayorlasa buladi.

b) solishtirma qarshilik uzgarishining optimal haroratga bog'likligi keltirilgan.

Serpimli jismning doimiy foydalanish hisobidan sensor xossalarining har doim uzgarishi hosil buladi.(har doim mexanik kuchlanish ta'sirida deformatsiyasekinlik bilan buladi).

Sensorning xarakteristik keyingi siljishi qisman kompensirlangan buladi.Tenzodatchikning xarakteristikasi uchun qarshi effekt bilan boshqariladi.




Rasm 2.3 V-chiziq haqiqatan pastta joylashadi. A-chiziq qarshi yunalishda harakatlanuvchi serpimli jismning mexanik sudiralishi. Uzgaruvchang signal asosida sudiraluvchi rejimli tenzodatchiklarda chiziqli dreyf kompensasiyasi. S-chiziq sudiraluvshi rejimda tenzodatchikning uzgaruvchang panjarasi orqali ta'sir etadi. Metallik tenzodatchik plyonkada sintetik materialdan tayorlanadi. Keyingi hoqlagan serpimli jismni epoksid yelim bilan yelimlanadi. Bunda yana sintetik materialdan plyonkani yana urab yelimlash kerak.

Keyin organik tayanchdagi havoning namligining ta'sirin birinchi navbatda etiborga olish kerak. Bunday turdagi tushiqni tashqi gazdan faqat germetik klapan orqali ximoya qilsa buladi.

2.4 rasmda tenzodatchikning plyonkalarining sunniy materialdan tayorlangan prosessi kursatilgan.

## 2.4 Yarimo'tkazgichli tenzodatchiklar

Metalli tenzodatchiklar bilan yarimutkazgishli tenzodatchiklarning bir-biridan farqi "k" koeffitsient uchun 8-ifodada keltirilgan, ifodaning materialdan bog'liqligi geometriyalik ifodaga nisbatan kuproq. Shunday qilib koeffitsient "k" 2 ga nisbatan kuproq ma'noga ega buladi va uzining sensor sezgirligini oshiradi. Sababli tamoyilga kura metalli tenzodatchiklarning kushsiz signallarning uzgarishi yetarli etiborga ega buladi. Keyingi yillari yarimutkazgishlarda pyezoqarshilikli effekt materialga bog'likligini ifodalaydi ya'ni ishki mexanik kuchlanish harakati hisobidan panjaradagi stukturalarning bog'likligining buzilishi ifodalanadi. Uniaksial qisilish aytida 1-1 rasmda kursatilgandek 3-yunalishdagi panjaradagi tuginlar orasidagi masofaning uzgarishi 1-2 nisbatan . Odatta simmetrik fazoga oid yunalish uz-ora ekvivalent bulmaydi. Kvant nazariyaga kura simmetrik panjara sababli oddiy kristalldagi elektronlarning tulqin funksiyasi energetik sathga boshqa tegishli bulmaydi va energetik sathning degenerasiyalashi kamayadi. Bunday effekt aniq hisob kitobi qimmat turadi va tadqiqotning oldingi muammolarida turibdi. Bizlar eksperiment bergan ta'riflar bilan shegaralanishini hoqlaymiz.



**Rasm 3-1.** n-tipli yarimutkazgishlarda pyezoqarshilikli effekt.

Mexanik kuchlanish natijasida 3-1 rasmda kursatilgandek elektronlarning energetik haloti bir birigi nisbatan har xil siljiydi va bu utkazgishning ekvivalentli chiziqdagi

kristallografiyasi bulib hisoblanadi. Agar elektronlar oqimi ishki elektr kuchlanishini hosil qilsa shunda utkazuvchilarning har xil chiziqlari har xil obrazda uzining qissasini yetkazadi.

Bu shunday muhim yechimga keladi: Tarifga kura chiziq stukturalariga mexanik kuglanishning ta'siri shuni kursattiki ,elektr utkazuvchanglik kristallarning yunalishiga bog'lik buladi qachonki elektr toki oqiyatgan vaqtda. Demak utkazuvchanglik anizotrop bulgan u kristall panjaraga nisbatan elektr maydoning yunalishiga bog'lik. Bu ifodada sensorli qarshilik uchun skalyar utkazuvchanglik urniga sensor utkazuvchanglikni oparib kuysak unda kuyidagi bog'lik kelib chikadi.

$$\vec{j}_n \stackrel{(3.3.1-1)}{=} \begin{pmatrix} \sigma_{11}^{sp} & \sigma_{12}^{sp} & \sigma_{13}^{sp} \\ \sigma_{21}^{sp} & \sigma_{22}^{sp} & \sigma_{23}^{sp} \\ \sigma_{31}^{sp} & \sigma_{32}^{sp} & \sigma_{33}^{sp} \end{pmatrix} \vec{E} = |q| \rho_n \begin{pmatrix} \mu_{11}^n & \mu_{12}^n & \mu_{13}^n \\ \mu_{21}^n & \mu_{22}^n & \mu_{23}^n \\ \mu_{31}^n & \mu_{32}^n & \mu_{33}^n \end{pmatrix} \vec{E}$$


Bunnan ma'lum buldiki  $p_n = p_D$  doimiy konsentrasiyali legirlangan anizotropik utkazuvchangligi tok tashuvchilarning harakatchangligi hisobidan payda buladi. Berilgan ifodadan (1) tenzor diagonalidan tashqari tarkibiy qismlari ham nolga teng bulmasligi kerak.

Tok zichlik vektorining ma'nosi maydon yunalishidagi vertikal tarkibiy qism ya'ni elektr maydondagi tok oqimining vertikal joylashuvi berilgan.

Keyin esa (1) ifodani qarshilik kurnishida yozsak.

$$\vec{E} = ((\rho)) \vec{j} = \begin{pmatrix} \rho_{11}^{sp} & \rho_{12}^{sp} & \rho_{13}^{sp} \\ \rho_{21}^{sp} & \rho_{22}^{sp} & \rho_{23}^{sp} \\ \rho_{31}^{sp} & \rho_{32}^{sp} & \rho_{33}^{sp} \end{pmatrix} \vec{j}$$

Agar oqichtgan tokning tok zichligi  $j$ , u holda moydanning perpendikulyar yunalishida (1) ifodaning analogiyasi material anizotropiyasida sensor qarshiligi nolga teng emas. Ulchov ta'sirini magnit maydon orqali effekt xolldan ajiratib bulmaydi. Shunki u soxta effekt xollni bildiradi.



Rasm 3-1. Anizotropli elektr utkazuvchilikda soxta effekt xoll.

Yarimutkazgishdagi amal qiladigan mexanik kuchlanish uziga xos tenzor qarshiligiga bog'lik. Tenzor kuchlanish ( $\sigma$ ) 6 tarkibiy qism bilan yoziladi.

$$\begin{aligned} \vec{E} = ((\rho))\vec{j} &= ((\rho_{sp}^0 + \delta\rho_{sp}((\sigma))))\vec{j} \\ &= \rho_{sp}^0 \left( \left( 1 + \frac{\delta\rho((\sigma))}{\rho_{sp}^0} \right) \right) \vec{j} =: \rho_{sp}^0 (1 + \Delta((\sigma)))\vec{j} \end{aligned}$$

Biz chuni qabul etishni hoqlaymiz mexanik kuchlanishsiz uziga xos qarshilik tenzor  $\rho_{sp}^0$  tarkibiy qismlari tenzorning g'ar bir alohida tarkibiy qismlari ( $\Delta$ ) boshqa (4) 6 tarkibiy qismga bog'lik buladi. Shunday qilib umumiy holda funksiya bog'likligi poyda bermaydi deb yoziladi. Kup hollarda chiziqli yul bilan soddalashtirsa buladi.

$$\text{mit } \frac{\delta\rho((\sigma))}{\rho_{sp}^0} =: \Delta((\sigma))$$

Tenzorning tarkibiy qismlarin bir indeks bilan yozsa buladi. (Indekslarning kamayaishi Fogta indekslarga kullansak)

